



BUXORO FATVO MAKTABI NAMOYONDALARI

Mamadaliyev Akbarjon

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent

Islom instituti 401-guruh talabasi

Annotatsiya: Bu qisqacha yozilgan maqolada buyuk ajdodlarimizning bosib o'tgan ilmiy yo'llari va yozgan ilmiy asarlarining ahamiyatini ko'rsatib berishdir. Ilm- fan va islom dini fatvo ilmida tutgan o'rnilarining qay darajada ekanligini qisqacha yoritish.

Kalit so'zlar: Abu Hafs Kabiyr, al-Buxoriy, Zayniddin al-Attobiy, Faxruddin al-Buxoriy, Abu Zayd Dabusiy, Sadrul islom al-Buxoriy,

Abu Hafs Kabiyr al-Buxoriy. Abu Hafs Kabiyr Ahmad ibn Hafs al-Buxoriy Bag'dodga borib, u yerda imom Muhammad bilan uchrashadi va undan dars ola boshlaydi. Hanafiy mazhabi fiqhini o'zlashtirib, boshqa diniy ilmlarda kamol darajasiga yetgandan keyin ona shahri Buxoroga kaytib keladi. Bu yerda u bir necha masjid va madrasalar qurib, tolibi ilmlarga dars o'tib, odamlarda paydo bo'lgan turli savollar va masalalarning javoblarini aytib beradi.

Abu Hafs, hanafiy mazhabi ta'limotlarini birinchi bo'lib Movarounnahrda olib keldi. Uning qo'lida ko'pgina faqihlar va olimlar yetishib chiqdi. Hatto tarixchilarning ta'kidlashlaricha, Buxoroda ilmning tarqalishiga, imom va ulamlarning hurmat topishiga sababchi bo'lgan kishi Abu Hafs Kabiyr bo'lgan. Sam'oniyni aytishicha, Abu Hafs ko'pgina faqihlarni tarbiyalab kamolga yetishtirgan. Ular Xarajir degan qishloqda bo'lishgan ekan.



Abu Hafs Kabiyr hanafiy mazhabi fiqhining Movarounnaxrda tarqalishida jonbozlik ko'rsatgan bo'lsa, uning oilasi, xususan, o'g'li Abdullohning bu borada xizmati buyuk bo'lgan. Shuning uchun ham uni Abu Hafs Sag'iy, ya'ni kichik Abu Hafs deb atashgan.

Abu Hafs Kabiyrning shuhrati butun Buxoroga, qolaversa, butun islom olamiga tarqaladi. Hatto, arab diyori olimlari biror masalaning javobini topishda qiynalib qolishsa, Buxoroga Abu Hafs Kabiyrning oldiga bir kishini yuborib, o'sha masalaning yechimini bilib olishar ekan. Narshaxiyning aytishicha, hojilar karvoni kelayotganida, karvondan bir kishi Abu Hafsning yoniga kelib, undan masala so'ragan ekan. Abu Hafs hayratlanib: "O'zing-ku Iroqdan kelyapsan, nima uchun Iroq olimlaridan so'ramading?" so'rasa, u kishi esa: "Bu masalada Iroq olimlari bilan munozara qildim, lekin ular javob bera olmadilar va menga Buxoroga borib, bu masalani Abu Hafsdan yoki uning farzandidan so'ragin, ular senga bu masalaning javobini aytishadi deyishdi", - deb javob beradi.

Olimlar uning ilmu fazlini baholab, uni "muallimi islom", ya'ni islom dinining muallimi, uning sharofati bilan Buxoroni "Qubbatul islom", ya'ni islom dini gumbazi va u kishi yashaydigan mahalla darvozasini "Xaqroh", ya'ni xaq yo'l deb atashgan ekan.

Abu Hafs Kabiyr 150/768-yili tug'ilib, 216/832-yil vafot etgan¹.

Hasan ibn Yahyo al-Buxoriy. Abu Ali al-Hasan ibn Yahyo ibn Ali ibn Abdulloh al-Zindavisatiy al-Buxoriy al-Mubtag'iy al-Hanafiy (vaf. 400/1010). "Nazm al-fiqh" (Fiqh tartibi) asari muallifi. Kitob muxtasar holdagi fatvo to'plami bo'lib, fatvolar tartibli, "falon masala mana shuncha", "falonchi bu masalaning shuncha ekanini aytgan" tarzida raqamlab, sonma-son bayon etgan. Masalan, tahoratning sunnati shuncha, imomga ergashishning turlari buncha, zakot shuncha odamga farz bo'ladi va hokazo tarzda tuzilganki, uni o'qish

¹ Abdulhakim Shar'iy Jo'zjaniy. Islom huquqshunosligi, Hanafiy mazhabi va O'rta osiyo faqihlari. – Toshkent.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2002. – B. 212.



ham, tushunish ham ancha oson. Afsuski, asar nashr etilmagan, O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida uning 1805-1806 yillarda ko‘chirilgan bitta qo‘lyozma nusxasi saqlanadi.²

Zayniddin al-Attobiy. Zayniddin Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Umar al-Attobiy al-Buxoriy (vaf. 586/1190). Bu kishining “Fatovoyi Attobiyya” (Attoblikning fatvolari) asarlari mashhurdir. Ushbu fatvo to‘plamining boshqa nomlari “Javome’ al-fiqh” (Fiqh to‘plamlari) va “Jome’ al-fiqh” (Fiqh to‘plami) ham deb ataladi. “Kashf az-zunun” (Gumonlarni ochish)da uning to‘rt jildidan iborat ekani aytilgan³.

Faxruddin al-Buxoriy. Faxruddin Ahmad ibn Muhammad ibn Abu Bakr al-Buxoriy (vaf. 522/1128). “Xizonat al-fatovo” (Fatvolar xazinasi) asari muallifi bo‘lib, u Zahiriddin Kabir Ali ibn Abdulaziz al-Marg‘inoniy (vaf. 506/1112)ning shogirdi ekanini asarining “Zakot kitobi”da alohida tilga olgan. Asar muqaddimasida muallif avval yozgan “Majma’ al-fatovo” (Fatvolar majmuasi) asarini hamda oldin o‘tgan faqihlarning 20 ga yaqin fatvo to‘plamlarini tilga olib, ulardan istifoda etgan holda katta-yu kichikning hifz qilishi va mutolaasi uchun qisqa fatvo to‘plami tuzayotganini bildirgan. Asar odatdagidek “Kitob at-tahorat”dan boshlangan va “Kitob al-Hiyal” hamda “Adab al-muftiy” bilan tugagan. Mazkur fatvo to‘plami ham nashr etilmagan. Qozi Jakan al-Hindiy (vaf. 920/1514) qalamiga mansub “Xizonat al-fatovo” nomli asar bor. Iftixoriddin Tohir ibn Ahmad ibn Abdurrashid al-Buxoriy (vaf. 542/1148) qalamiga mansub “Xizonat al-fatovo” nomli asar VII jild qilib Dehli va Qohirada nashr etilgan bo‘lib, aslida u muallifning “Xizonat al-Voqeot” asari bo‘lsa kerak⁴.

² Amanov Hamidulla, Primov Soatmurod. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent.: Movarounnahr. 2017. – B. 182.

³ Amanov Hamidulla, Primov Soatmurod. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent.: Movarounnahr. 2017. – B. 185

⁴ Amanov Hamidulla, Primov Soatmurod. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent.: Movarounnahr. 2017. – B. 182.



Iftixoriddin al-Buxoriy. Iftixoriddin Tohir ibn Ahmad ibn Abdurrashid al-Buxoriy (vaf. 542/1148) “Xulosatul fatovo” (Fatvolar xulosasi) asari muallifi. Muallif muqaddimada o'zining “Xizonat al-Voqeot” (Voqealar xazinasini) hamda “Kitob an-Nisob” asarlari asosida qisqartirib tuzganini yozadi. Asarning har bir kitob (bob)i avvalida shu kitobdagi fasllar va jins (mavzu)larni bayon qilib chiqqan. Mazkur fatvo to‘plami 4 jild (juz)dan iborat bo‘lib, birinchi jildda 6 ta, ikkinchi va uchinchi jildda 3 tadan, to‘rtinchi jildda esa 35 kitob mavjud. “Xulosat al-fatovo” Hindistonda nashr etilgan.

Sadri shahid. Abu Muhammad Hisomiddin Umar ibn Abdulaziz ibn Umar ibn Moza Husom ash-shahid al-Buxoriy (1090-1141). “Fatovoyi Kubro” va “Fatovoyi Sug‘ro” (Katta va kichik fatvolar) katta-kichik fatvolar to‘plami muallifi. Mazkur ikki asarni xorazmlik faqih Jamol al-aimma Najmiddin Yusuf ibn Ahmad al-Xorazmiy al-Xosiy (vaf. 634/1237) yanada qisqartirib, qayta ishlagan. Bularning hech qaysisi nashr etilgan emas. Ulardan bittadan nusxa O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida saqlanadi⁵. Imom hijriy 536-yil Samarqandda yuz bergan Katvon voqeasida shahid bo‘ldi, jasadi Buxoroga keltilib dafn qilindi⁶.

Sadrul islom al-Buxoriy. Burhoniddin Sadrul islom Mahmud al-Buxoriy (1156-1219) “Zaxirat al-fatovo” (Fatvolar zaxirasi) asari muallif bo‘lib, “Zaxirat al-burhoniyya fi-l-fatovo” nomi bilan ham yuritiladi. Muallif buni o‘zining katta hajmli “Muhit al-Burhoniyy” asaridan qisqartirib tuzgan, buning o‘zi ham ikki jilddan iborat. Muallif ushbu asarida navodir masalalari va undan keyingi e’tiborli fatvolarni to‘plamshga harakat qilgan. Mazkur fatvo to‘plami nashr etilmagan, O‘zR FA ShI qo‘lyozmalar fondida uning Temuriylar davrida kitobat qilingan noyob nusxalari mavjud. Bu kishini yana “Tatimmat al-fatovo” (Fatvolar tugallanmasi) asari muallifi bo‘lib, uni “Tammat al-fatovo” ham deyiladi.

⁵ Amanov Hamidulla, Primov Soatmurod. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent.: Movarounnahr. 2017. – B.183.

⁶ Abdulhakim Shar’iy Jo‘zjaniy. Islom huquqshunosligi, Hanafiy mazhabi va O‘rta osiyo faqihlari. – Toshkent.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2002. – B. 214.



Asar fiqh sohasida muhim bo'lgan bo'limlar: tahorat, namoz, zakot, haj, nikoh, taloq, bay' va ziyorat al-quburga oid fatvolar majmuasidan iborat. "Kashf az-zunun"da aytilishicha, mazkur asar aslida Husom ash-shahid (1090-1141) qalamiga mansub bo'lib, mavzularga, kitob va boblarga ajratilmagan bo'lgan. U keyinchalik noma'lum kimsa tomonidan chala tartibga solingan. Sadr al-islom uni birma-bir tuzatib, tartibga solgan, yangi mavzular va masalalar qo'shib qayta ishlagan. Mazkur fatvo to'plami nashr qilinmagan⁷.

Zahiriddin al-Buxoriy. Zahiriddin Muhammad ibn Ahmad ibn Umar al-Buxoriy (vaf. 619/1222) "Fatovoyi Zahiriyya" (Zahiriddinning fatvolari) nomli asari bor. U Buxoroda muhtasiblik qilgan taniqli hanafiy olimidir. U Zahiriddin Abul Mahosin al-Hasan ibn Ali al-Marg'inoniy (XII asr)ning shogirdlaridan bo'lib, uning ham fatvo to'plami mavjud. Biroq, Zahiriddin al-Buxoriyning fatvo to'plami mashhurroq va "Fatovoyi Zahiriyya" nomi bilan shuhrat topgan. Unda Zahiriddin al-Marg'inoniy va uning otasi Zahiriddin Kabir nomi bilan tanilgan Ali ibn Abdulaziz al-Marg'inoniy (vaf. 506/1112) nomlari hurmat bilan tilga olingan. "Fatovoyi Zahiriyya"ning muqaddimasi ilmning fazilati haqidagi iboralar bilan boshlangan: "Ilmning fazilati maxfiy bo'lmagan fazilatdir, jaholatning razolati esa inkor qilinmaydi. Ilmga ega bo'lgan kimsa oliy darajalarga erishadi. Jaholat bilan esa pastkashlikning jarliklariga tushib ketiladi. Ilmning navlari va sinflari juda ko'p. Ularning ichida eng ko'p uchraydigani ilojisiz fiqhga muhtoj bo'ladi. Alloh fiqh bilan qadrlil qilgan kimsaga ko'p yaxshilik bergan bo'ladi"⁸.

Abu Zayd Dabusiyy. Abu Zayd Dabusiyy Buxoro bilan Samarqand oralig'ida joylashgan, hozirda Samarqand viloyatiga tegishli „Dabusiya“ qishlog'ida (o'tmishda shahar bo'lgan) tug'ilib o'sgan, „Quzoti sab'a" (yetti mashhur qozi)dan biri bo'lmish Abu

⁷ Amanov Hamidulla, Primov Soatmurod. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent.: Movarounnahr, 2017. – B. 186-187.

⁸ Amanov Hamidulla, Primov Soatmurod. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent.: Movarounnahr, 2017. – B. 187.



Zayd Ubaydullo (ba'zi manbalarda Abdullo) ibn Umar ibn Iso ad-Dabusiyy „Ilmul-xilof“ deb atalgan yangi fanning asoschisi edi. Ahli sunna mazhablari orasidagi ixtiloflarni tartibga solib, ilmiy uslubda o'rganish qoidalarini yaratib bergan va ko'p ilmiy asarlar yozgan. Ulardan “Kitobul-asror fil-usul val-furu”, “al-Amadul-akso”, usulul-fiqh bo'yicha “al-Anvor” kitobi mashhur bo'lib, “Ta'sisun-nazar” Mustafo ibn Muhammad Qabboniy Damashqiy muqaddimasi bilan Misrda nashr etilgan. Usulul-fiqh bo'yicha yozgan “Taqvimul adilla” kitobini Faxrul-islom Bazdaviy sharhlagan. 33 juzdan iborat “Taqvim al-adilla fi usul al-fiqh” asari ahkom manbaalarini usuli ochib berishga qaratilgan. Bu risola hanafiylar tarixidagi 2-yirik kitob hisoblanadi. “Taqvim al-adilla fi usul al-fiqh” 2001-yil Ali Muhammad Baydun tomonidan Bayrutdagi “Dor al-kutub al-ilmiya” nashriyotida chop etilgan.

Ibn Xaldun ta'kidlashicha, Dabusiyyning usulul-fiqh bo'yicha yozgan kitobi bu sohada yozilgan asarlarning eng muhimlaridan biri hisoblanadi.

Dabusiyy “At-Ta'liqa” nomli kitobni ham ilmi xilof bo'yicha yozgan va Hanafiy mazhabida qiyos uslubi bo'yicha keng ma'lumot bergan, unga tegishli bo'lgan shartlar va bahslarni tugatgan va usulul-fiqh ilmini kamol darajasiga yetkazgan olim edi⁹. Hanafiy mazhabida qiyos uslubi borasida eng yaxshi asar yozgan olim, mutaqqaddimlardan ad-Dabusiyy va mutaaxxirlardan Sayful-islom Bazdaviy edi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Dabusiyy 428-430 h.y./1037-1038 vafot etgan va “Tabaqotul-hanafiya”da yozilishicha, Dabusiyyada To'qqiz qozi (yoki Yetti qozi) maqbarasida dafn etilgan¹⁰.

⁹ Abdulhakim Shar'iy Jo'zjaniy. Islom huquqshunosligi, Hanafiy mazhabi va O'rta osiyo faqihlari. – Toshkent.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2002. – B. 213.

¹⁰ Abdulhakim Shar'iy Jo'zjaniy. Islom huquqshunosligi, Hanafiy mazhabi va O'rta osiyo faqihlari. – Toshkent.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2002. – B. 213.



Foydalanilgan Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Amanov Hamidulla, Primov Soatmurod. Hanafiy fihi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent.: Movarounnahr. 2017.
2. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjaniy. Islom huquqshunosligi, Hanafiy mazhabi va O'rta osiyo faqihlari. – Toshkent.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2002
3. Shayx Nuriddin Xoliqnazar. Fiqh va aqoidga oid ixtilofli masalalar yechimi. – Toshkent. Matbaachi nashryoti 2024